


## Axborot qabul qiluvchilar

Biz predmetlarni ko'rish, ularni qo'l bilan ushlash, hidini hidlash, tovushini eshitish, mazasini tatib ko'rish orqali atrofimizdagi olam haqida axborotlarga ega bo'lamiz.

**Axborot qabul qiluvchi axborot oluvchi obyektidir.**  
**Axborot har doim axborot manbayidan axborot qabul qiluvchiga uzatiladi.**



**axborot manbayi**

Salom, Aziza!  
Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan ustozlar haqida she'r yodlashimiz kerak.



**axborot qabul qiluvchilar**

Aziza va mobil telefon – **axborot qabul qiluvchilar**.  
Telefon axborotni signal shaklida, Aziza esa tovush shaklida qabul qiladi.



1. Rasmdagi qaysi obyektlar **axborot qabul qiluvchilar**, qaysilari **axborot manbayi** hisoblanadi?



2. Bir vaqtning o'zida o'zingiz ham axborot qabul qiluvchi, ham axborot manbayi bo'la oladigan vaziyatni o'ylab toping.



3. Savollarga javob bering.

- Axborot qabul qiluvchilar deb nimalarga aytiladi?
- Axborot qabul qiluvchini qanday aniqlash mumkin?

